

OLAMNI NURIDA MUNAVVAR ETGAN

Aziza Musurmonova Abdurahmonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi.

+998906680013

Atabayeva Guzal Farhadovna

Bir buyuk donishmand aytganidek: „Bu olamda ulug' zot kim ,desang ,shaksiz doim onam deyman''. Ona shu qadar buyuk va ulug' zotki, u o'zidagi kuch bilan, go'zal sabri bilan , va eng asosiysi mehr-muhabbati bilan nafaqat farzandlari va yaqinlarini, balki butun boshli insoniyatni bag'riga bosib , dardiga darmon va malham bo'la oladi. Bu go'zal jumлага atab qanchadan-qancha shoir va yozuvchilar she'rlar, asarlar va romanlar yozishgan. Jumladan, Mirtemir Tursunov juda mahoratli shoirlarimizdan hisoblanadi. „Sen Ona...'' she'ri nihoyatda barakali shoir ijodi mahsuli hisoblanib, ushbu she'rni o'qib tuyg'ularim jumbushga keldi.

O'z zamonasining mard va tanti shoirlaridan biri bo'lmish Mirtemir Tursunov 1910-yilda ko'plab ma'lumotlarida yozilganidek Qoratog' etaklarida-Turkiston shahrining Eski Iqon qishlog'ida tavallud topgan. Avval bobosi qo'lida tahsil oladi, keyin eski maktabda tahsil oladi. Ko'rib turganimizdek, diyorimizning sinovli yillarida bolaligi o'tgan shoir bilim olishdan to'xtamaydi. Shoir Toshkentda „Almai'' nomidagi bolalar namuna ish maktabida tarbiya va ta'lim oladi. Shundan keyin mahoratli shoir Samarqanddagi O'zbekiston Davlat pedagogika akademiyasida o'qiydi. Erta katta hayotga qadam tashlashni boshlagan shoir avval maktablarda muallimlik qiladi, nashriotlarda, Yozuvchilar Uyushmasida ishlaydi. Shoirning dastlabki ijod mahsuli 1926-yilda „Tanburim ovozi'' 16 yoshida chop etiladi. Shoir umri davomida ko'plab she'rlar, dostonlar to'plamlarini chop etgan. Ijod qilib charchamagan shoir tarjima sohasida ham o'z mahoratini ko'rsargan. Masalan, A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov, N. A. Nekrasov va T. G. Shevchenko she'rlarini, dostonlarini o'zbekchaga o'giradi.

Mirtemir xoh yirik doston yozsin, xoh kichik satrlar ila she'r yozsin , ko'nglida kechgan barcha tuyg'ulari asarlariga ko'chgan. Masalan, uning yuqorida aytib o'tganimdek „Sen ona...'' she'riga to'xtalib o'tmoqchiman:

Alisherga alla aytib uxlatgan

Sen-ona

Og'ushida Bobur kamolga yetgan

Sen-ona

Tarobiyni og'ir jangda jo'natgan

Sen-ona.

Mazkur satrlar ila shoir nima demoqchi ? Ne-ne mutafakkirlar, ne-ne ulug' va mard insonlarni voyaga yetkazib, tarbiya qilgan ona bu-hamisha o'zida beqiyos kuch-qudrat topa oladigan

noyob qudrat egasidir. Tarix zarvaraqlaridan yaxshi bilamizki, onalar og'ir va qiyin davrlarda ham, qatag'on va rus bosqini davrlarida ham o'zining sabr-matnati, metin irodasi va mehnatsevarligi bilan ajralib turgan va avvalo farzandlariga to'g'ri tarbiya bera olganlarki mamlakatimizda Navoiy, Bobur va Tarobiy kabi ulug' kishilar yetishib chiqqan. Bunday ulug' onalar xotirasi oldida bosh egib, ularning ruhlariga hamisha duoda bo'lish insoniy burchimizdir.

“Yagona o'g'lingni jo'natgan jangga,
Bo'l bardam, ona!

Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,

Muhtaram Ona” –deb she'rini yakunlarkan shoir bizni onamizga bo'lgan mehrimizni va muhabbatimizni yanada oshiradi. Chunki, har bir farzand ,xoh u og'il bo'lsin,xoh u qiz bo'lsin eng avvalo, onasini rozi qilishga intilishi lozim .Hammamizga ma'lumdirki, urush davrida ko'plab yigitlar yurtimizdan jo'natilgan.Tabiiyki,ularning ayrimlari yarador bo'lib qaytgan,aksaridan esa ming afsuski qora xat kelgan.Jigargo'shasidan qora xat kelgan onalar qay ahvolda bo'lishlari hammamizga ma'lum, albatta.O'sha davrda samarali ijod qilgan ko'plab yozuvchi va shoirlar aynan shu holatdagi onalar tasvirini juda ta'sirli va mahoratli qilib tasvirlagan.Hech shubhasiz ulardan biri Mirtemir hisoblanadi.Darhaqiqat,ona deganda tilimiz ham dilimiz ham beqiyos insoniy mehr-muhabbatga'ezgulikka to'lib-toshib boraveradi. Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki,ijod qilishdan charchamagan shoirimiz Mirtemir qanday mavzuda qalam tebratmasin,unga ishtiyoq bilan yondashadi.U gohida O'zbekiston dalalarini kezib ,mehnatkash va mehribon dehqonlar suhbatida bo'lib,ularning ishtiyoqi va mahoratidan ilhomlanib ,tasirli satrlar yarata olgan.Shoirni to'lqinlantirgan tuyg'ular bisyor.Ulardan biri yuqorida aytib o'tganimizdek Ona hisoblanadi.Dunyoda qancha millat bo'lmasin uning shuncha onasi bor.Har bir millat farzandi o'z onasini yaxshi ko'rmasligi,qadrlamasligi va e'zozlamasligi aslo mumkin emas.Ona Osiyoda ham ,Amerika va Hindistonda ham xullas olamning qaysi burchagida bo'lmasin har millat va har makonda e'zozlanadi va ardoqlanadi.Rang-ro'yi ,urf-odatlari va turmush tarzidan qat'iy nazar ona ulug' zotligicha qoladi.Menimcha shoir o'z satrlarida yuqoridagi fikr va xulosalarni mujassam etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.B.Toxliyev, B.Karimov va boshq.10-sinf adabiyot darsligi 2017-yil
- 2.11-sinf. Adabiyot. II qism Boqijon Toxliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova Toshkent - 2018
- 3.8-sinf adabiyot darsligi Sul-tonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qochqorov Toshkent 2019
- 4.7-sinf. Adabiyot darsligi Qozoqboy Yoldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yoldoshekov. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2017
- 5.R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Talim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2016.